



_____ hokimligi
*maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi*

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yilida
7-8-9-sinflar uchun adabiyot fanidan

**TO'GARAK
HUJJATLARI**

O'tkazilgan xona _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan “_____” to‘garagining
ISH REJASI

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Hovlidagi daraxt	1		
2.	“Oqbo‘yin”	1		
3.	Xalq dostonlari haqida	1		
4.	Ruhiy Kamolot vositasi	1		
5.	O‘zbek adabiyoti tarixi	1		
6.	Ernest Seton-Tompson “Lobo”	1		
7.	G‘azallar	1		
8.	Tuyuq janri haqida	1		
9.	Komil inson	1		
10.	Ernest heminguey. “Chol va dengiz”	1		
11.	Muhammad Ali. “Gumbazdagi nur” Muallif bilan tanishamiz	1		
12.	“Bormog‘in” tajnisli tuyuq haqida	1		
13.	Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat	1		
14.	Imom Al-Buxoriy	1		
15.	Sirojiddin Sayyid. “Vatanni o‘rganish”	1		
16.	Tajnis haqida	1		
17.	Oybek hayoti va ijodi	1		
18.	Badiiy adabiyotda ruhiyat tahlili	1		
19.	Sergey Yesenin. “Shahinam, o, mening Shahinam...”	1		
20.	Jahon Otin Uvaysiy	1		
21.	Usmon Nosir hayoti va ijodi	1		
22.	Sohibqiron	1		
23.	Omon Matjon hayoti va ijodi	1		
24.	Abdulla Qodiriy. “Mehrobdan chayon”	1		
25.	Asqad Muxtor hayoti va ijodi	1		
26.	O‘lsam, ayrilmasman quchoqlaringdan she’ri haqida	1		
27.	Halima Xudoyberdiyeva	1		
28.	Abdulatifning ilk isyoni	1		
29.	Qamchibek Kenja hayoti va ijodi	1		
30.	Muhammad Yusuf hayoti va ijodi	1		
31.	Sharof Boshbekov	1		
32.	Saida Zunnunova. “Asfaltni qoq yorib unibdi giyoh...”	1		
33.	Robindranath Thakur hayoti va ijodi	1		
34.	Chingiz Aytmatov hayoti va ijodi	1		

Sana: “__” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Hovlidagi daraxt

Maqsadlar:

- a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va ko‘nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish;
- d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq : atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq :bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Mashg‘ulotning vositalari: o‘quv dasturi, mashg‘ulot rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash,hamma o‘zi uchun.

Nazorat: O‘quvchilarning mashg‘ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

II.Yangi mavzu bayoni:

Bu savolga javob topish uchun, avvalo,“hovli” va “daraxt” so‘zlariga e’tibor beramiz. Odatda hovli biz tug‘ilib o‘sgan joy, kichik vatan sifatida tasavvur uyg‘otadi. Daraxt esa uzoq umr ko‘radi, tabiatning barcha injiqliklariga qaramay, qaytadan kurtak ochib meva beradi. Daraxtning shu xususiyatlaridan kelib chiqib, mualliflar ko‘p holatlarda undan badiiy adabiyotda sabr-matonat, oila boshlig‘i, millat, jamiyatga oid g‘oyalar tasvirida foydalanadilar, ildizini ota-onaga, yashnab turgan yaproqlarini farzandlarga o‘xshatadilar. Demak, badiiy asarda obraz sifatida ishlatilgan obyektning matndagi vazifasini tushunish uchun uning o‘ziga xos xususiyatlariga ham e’tibor berishimiz lozim. Asarni o‘qiy boshlar ekanmiz, uning dastlabki satrlarigadiqqatimizni qaratamiz. Asar turlicha boshlanishi mumkin: tabiat tasviri, joy tasviri, obraz tasviri, biror muammoli vaziyat bayoni va hokazo. Ko‘p holatlarda asar voqealarining keyingi rivoji va muallif aytmoqchi bo‘lgan g‘oya (yoki g‘oyalar) mana shu ilk tasvirlarda ma’lum darajada aks etgan bo‘ladi. Bu g‘oyalar mazmunini anglashda matndagi muhim (“kalit”) so‘zlar ham asosiy o‘rinni egallaydi.



IV.Yangi mavzuni mustahkamlash:

Asar sarlavhasiga e’tibor bering. Sizningcha, asar nima uchun “Hovlidagi daraxt” deb nomlangan?

V.Uyga vazifa: Asarda nima haqida hikoya qilinadi deb o‘ylaysiz?

Maktab MMIBDO‘ _____sana_____ 20__yil

Sana: “__” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: “Oqbo‘yin”

Maqsadlar:

- ta‘limiy maqsad: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va ko‘nikmalarini shakllantirish.
- tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish;
- rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq : atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq : bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Mashg‘ulotning vositalari: o‘quv dasturi, mashg‘ulot rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: O‘quvchilarning mashg‘ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

Oqbo‘yin notanish hidni darrov ilg‘adi. Parvo qilmadi. Tovuq patini o‘ynashda davom etdi. Patni ertalab topgan, nimaligiga aqli yetmay, boshi garang edi. In yonidagi chirik xashaklar ustida cho‘zilib yotgan ona it bezovta g‘ingshiganidan so‘nggina qadam tovushlari kelayotgan tomonga o‘girildi. Besh odimcha narida uy egasi – Sodiq aka bilan norg‘ul bir odam – Karim podachi, egnida yag‘iri chiqqan paxtalik, oyoqlarini kerib turardi. Undan go‘ng, pichan, silos va yana allambalolarning hidi anqirdi. Oqbo‘yin bu xil tashriflarga ko‘nikkan, har keldi-ketdidan so‘ng og‘a-inilaridan birortasi g‘oyib bo‘ladi, keyin onasi tuni bilan g‘ingshib chiqadi. Boshida ular o‘nta edi. Uchtasini, urg‘ochi ekan, birinchi haftadayoq gumdon qilishdi. Bu gal navbat qaysi biriga ekan? Karim podachi oyoqlari ostida o‘ralashayotgan inisi – Oqto‘shni qo‘liga olib, obdan paypaslab ko‘rdi, panjalarini diqqat bilan ko‘zdan kechirdi. Yoqtirmadi. Oqto‘sh nari ketishni xayoliga ham keltirmay, tag‘in suykala boshlagandi, Karim podachi etigi uchi bilan turtib yubordi. Joni og‘rigan Oqto‘sh angillaganicha onasi tomon pildillab qochdi. Inisi Oqbo‘yinga yoqmaydi, o‘lgudek yaltoq, ko‘ringan qoraga suykaladi. Akasi Malla esa tamomila aksi – tajang, salga zardasi qaynab darhol “yoqa bo‘g‘ishadi”. Hozir ham u in to‘riga biqinib olib, Karim podachiga adovatli tikilib turardi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Oqbo‘yin, Oqto‘sh va Malla o‘rtasida qanday farqlarni kuzatdingiz?

V. Uyga vazifa: Muallif bu farqni ko‘rsatishda qanday vositalardan foy dalanmoqda?

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__yil

Sana: “__” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Xalq dostonlari haqida

Maqsadlar:

a) ta’limiy maqsad: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma’lumotlar berish, o‘quvchilarda mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish.

b) tarbiyaviy maqsad: o‘quvchilarga vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

v) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, tafakkurini, asarlarni

tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

Axborot manbalari va texnik vositalari: kompyuter, proyektor, ekran, slayd, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, videolavhalar, audio MP3 varianti, rag‘bat kartochkalari

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Mashg‘ulotning vositalari: o‘quv dasturi, mashg‘ulot rejasi, mavzuga oid ko‘rgazmalar, xattaxta, texnik jihozlar.

I.Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

Doston xalq og‘zaki ijodi va o‘zbek mumtoz adabiyotidakeng foydalanib kelinayotgan epik shakllardan biridir. Doston so‘zi xilma-xil ma’noni bildirib kelgan. Masalan, Doston forschada epik asar nomini anglatadigan so‘z bo‘lib, u hatto qissa, romandek katta nasriy asarlargaham nisbat beriladi. Siz bilan biz o‘rganayotgan doston esaxalq og‘zaki ijodida yaratilgan va yaratilayotgan muayyan kompozitsion yaxlitlikka ega bo‘lgan xalq dostonlaridir. Ular yozma adabiyotdagi Suhayl va Guldursun, Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi dostonlardan fantaziya ko‘lami, ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan voqealar, aql bovar qilmaydigan qahramonliklar tasviri bilan farqqiladi.

To‘g‘ri, yuqorida nomlari tilga olingan dostonlardaham fantastik unsurlar, mubolag‘ali o‘rinlar mavjud. Biroq ulaming birortasi sujet erkinligi, favqulodda qiziq voqealar borasida xalq dostonlari bilan tenglasha olmaydi. Xalq dostonlarining ko‘pchiligiga xos xususiyat ularda ishq-muhabbat mavzusining ustunligidir. Dostonlardagi voqealar qahramonlaming ishqiy sarguzashtlari fonida kechadi. Masalan, dunyoga mashhur Alpomishni olasizmi, Ravshan yoki Kuntug‘mish dostonlarini olasizmi — bari-barisida muhabbat mavzusi ustuvorlik qiladi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

O‘zbek dostonlarining yakunlovchi qismiga xos xususiyatnima?

V. Uyga vazifa:

Adabiyot daftaringizga shevaga oid so‘zlarni yozib olingva ularni adabiy tildagi shakli bilan taqqoslang.



Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__ yil

Sana: “__” _____ 20__-yil. Sinflar: _____. To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Ruhiiy Kamolot vositasi

Maqsadlar:

- a) ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish va ko‘nikmalarini shakllantirish.
- b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish;
- d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

Milliy o‘quv dasturidagi malaka talablari bilan mosligi:

Og‘zaki nutq : atrofdagilar bilan muloqotga kirisha olish, muloqot odobiga rioya qila oladi; rasmlar, odamlar, narsalar va voqealarni og‘zaki tasvirlay oladi; o‘quv dasturida berilgan mavzular yuzasidan fikr bildira oladi;

Yozma nutq : bo‘g‘in ko‘chirish, bosh harflar imlosiga rioya qiladi

Tinglab tushunish: tinglangan monologik nutq va suhbatdan so‘zlovchining nutq ohangini belgilay oladi ; berilgan savolni tushunadi va mantiqli javob bera oladi jonli nutq, audiomatn shaklidagi matnlarning xulosasi va g‘oyasini ayta oladi

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob)

Mashg‘ulotning vositalari: o‘quv dasturi, mashg‘ulot rejasi, mashq daftari, “O‘qituvchi kitobi”, xattaxta, texnik jihozlar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: O‘quvchilarning mashg‘ulotda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

I. Tashkiliy qism: Salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni:

So‘z badiiy adabiyotning asosiy ish qurolidir. O‘zi ko‘zga ko‘rinmaydigan so‘z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalar, balki odam boshidagi o‘ylar, ko‘ngildagi sezimlarni ham ifodalash mumkin. Shuning uchun san‘at turlari orasida adabiyot alohida o‘rin tutadi. Insonning o‘y-xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to‘laroq aks ettiriladi. Shuningdek, badiiy adabiyotda tasvirlangan hayot ser qirra, qiziq va ta’sirli bo‘ladi. Tasavvur qilaylik, siz “Alpomish” dostonini o‘qiyapsiz.

Bilasizki, asardagi voqealar bundan minglarcha yillar oldin qayerdadir, kimlar bilandir ro‘y bergan, ehtimol, hech qachon bo‘lmagandir ham. Asar qahramonlari sizga qarindosh emas. Lekin ular ning taqdiri sizning taqdiringizga, tuyg‘ulari sizning tuyg‘ulari ngizga qo‘shilib ketadi, o‘zingizni ulardan ayri tasavvur qilolmaysiz. Doston qahramonlari taqdirining tuyg‘ularingizga bunchalar qattiq ta’sir ko‘rsatishi sababi haqida beixtiyor o‘ylab qolasiz.

Badiiy adabiyot, umuman, san‘at asarlarining inson ruhiyati va tafakkuriga kuchli ta’sir qilishi sabab nimada ekan? Bu savolga tushu narliroq javob berish uchun badiiy va ilmiy adabiyotlarni birbiri ga solishtirib ko‘rish kerak. Siz “Tabiatshunoslik” va “Geografiya” fanlari orqali kecha-kunduzning eng go‘zal va so‘lim payti bo‘lmish tong to‘g‘risida, yerga hayot baxsh etuvchi Quyosh haqida ancha ma’lumot larga egasiz. Quyosh bo‘lmasa, yerda tiriklik bo‘lishi mumkin emasligi va buning sababi ilmiy jihatdan tushun tirilgan. Bu ma’lumotlar sizning bilimingizni oshirgan. Bu bilimlar, sizning tafakkuringizni o‘stirgan, ammo tuyg‘ularingizga deyarli ta’sir qilmagan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Badiiy adabiyotga xos xususiyatlarni ayting. Uni ilmiy adabiyotga solishtiring.
2. Badiiy adabiyotning turlarga bo‘linishiga asos bo‘lgan jihatlarni ko‘rsating.

V. Uyga vazifa:

1. Adabiyotda inson hayoti, o‘y-fikr va kechinmalari to‘laroq aks etishi sababini ayting.
2. Og‘zaki adabiyotga xos belgilarga to‘xtaling.



Barcha sinflar va Litseylar adabiyoti
Barcha adabiyot qoidalari.
Barcha shoir va yozuvchilar.
Jaxon va O‘zbekiston adabiyoti.

*veb-saytimiz: Zokirjon.com
Hujjat Word variantda beriladi.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi. Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

40 listdan iborat adabiyot fanidan 7-8-9-sinf o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.




Narxi: 20 ming so'm

Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**